



RAQAMLI BANK XIZMATLARI ORQALI DEPOZITLAR HAJMINI OSHIRISH YO'LLARI

WAYS TO INCREASE THE VOLUME OF DEPOSITS THROUGH DIGITAL BANKING SERVICES

¹**Abdug'aniyev
Shoxruxbek
Shavkatbek o'g'li**

¹*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi.
ORCID: 0009-0004-1869-4220, E-mail: shoxa_6154@mail.ru*

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqolada raqamli bank xizmatlarining tijorat banklari depozit bazasini kengaytirishdagi o'rni va imkoniyatlari tadqiq etilgan. O'zbekiston Respublikasi bank tizimining 2017–2026-yillardagi rasmiy statistik ma'lumotlari asosida masofaviy bank xizmatlari foydalanuvchilari sonining o'sishi bilan depozitlar hajmi dinamikasi o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan. Masofaviy identifikatsiya, mobil ilovalar va raqamli banklarning omonat bozoriga ta'siri baholangan, ushbu jarayonni sekinlashtirayotgan omillar aniqlangan hamda raqamli kanallar orqali depozitlarni jalb qilishni kuchaytirishga qaratilgan takliflar asoslab berilgan.

Eng. - This article examines the role and potential of digital banking services in expanding the deposit base of commercial banks. Based on official statistics of the banking system of the Republic of Uzbekistan for 2017–2026, the relationship between the growth in the number of remote banking users and the dynamics of deposit volumes is analyzed. The impact of remote identification, mobile applications and digital banks on the deposit market is assessed, the factors slowing down this process are identified, and proposals aimed at strengthening deposit attraction through digital channels are substantiated.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *raqamli bank xizmatlari, masofaviy bank xizmatlari, depozit, omonat, depozit bazasi, mobil ilova, masofaviy identifikatsiya, raqamli bank, moliyaviy savodxonlik, kiberxavfsizlik, depozit siyosati.*
❖ *digital banking services, remote banking services, deposit, deposit base, mobile application, remote identification, digital bank, financial literacy, cybersecurity, deposit policy.*

Kirish.

Depozitlar tijorat banklari resurs bazasining tayanch bo'g'ini bo'lib, ularning hajmi va barqarorligi bankning kreditlash quvvatini, likvidlik holatini hamda foiz marjasining darajasini bevosita belgilab beradi. Jalb qilingan mablag'lar tarkibida aholi va yuridik shaxslar omonatlari ulushining

yuqoriligi bank uchun nisbatan arzon va bashorat qilinadigan resurs manbaini anglatadi. Shu bois depozit bazasini kengaytirish masalasi har qanday bankning strategik ustuvorliklari qatoridan o'rin oladi.

So'nggi yillarda mazkur masalaning yechimi tobora ko'proq texnologik imkoniyatlarga bog'liq bo'lmoqda. Mijoz endi

omonat ochish uchun bank filialiga borishi shart emas: masofaviy identifikatsiyadan o'tgan holda mobil ilova orqali bir necha daqiqada omonat shartnomasini rasmiylashtirish, mablag'ni to'ldirish yoki qaytarib olish imkoniyati yaratilgan. O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonuni [1], 2020-2025-yillarga mo'ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasi [2] hamda "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi [3] ushbu jarayonning huquqiy va institutsional asoslarini shakllantirib berdi.

Rasmiy statistika raqamli kanallarning omonat bozoriga ta'sirini yaqqol ko'rsatadi. Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 2017-yildagi 4,5 milliondan 2025-yil yakuniga kelib 82,9 millionga yetdi, ya'ni 18,4 barobar oshdi. Xuddi shu davrda bank tizimidagi jami depozitlar qoldig'i 59,6 trillion so'mdan 417,2 trillion so'mga ko'tarilib, yetti barobar o'sishni namoyon etdi [10; 11]. 2026-yilning birinchi choragida ham ijobiy tendensiya saqlanib qoldi: 1-aprel holatiga ko'ra depozitlarning umumiy hajmi 433,9 trillion so'mga yetdi [12].

Shu bilan birga, erishilgan natijalar mavjud salohiyatning to'liq ishga solinganini anglatmaydi. Aholi qo'lidagi naqd pulning bir qismi hamon bank tizimidan tashqarida aylanmoqda, omonatlar tarkibida uzoq muddatli mablag'lar ulushi pastligicha qolmoqda, raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi hududlar va aholi qatlamlari kesimida sezilarli tafovutga ega. Ayni shu holatlar raqamli bank xizmatlari orqali depozitlar hajmini oshirish yo'llarini ilmiy jihatdan asoslash zaruratini keltirib chiqaradi va mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Maqolaning maqsadi - raqamli bank xizmatlarining depozit bazasi shakllanishiga ta'sirini O'zbekiston bank tizimi misolida baholash hamda raqamli kanallar orqali omonatlarni jalb qilishni kuchaytirishga

qaratilgan amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Bank depozitlari va ularni boshqarish masalalari iqtisodiy adabiyotda keng yoritilgan. P. Rouz va S. Xadjins depozitlarni bank resurslarining asosiy manbai sifatida qarab, omonatchilar uchun raqobat faqat foiz stavkasi orqali emas, balki xizmat ko'rsatish sifati, qulaylik va ishonch orqali ham kechishini ta'kidlaydi [4]. Dj. Sinki moliyaviy xizmatlar industriyasidagi texnologik siljishlarni bank menejmentining tarkibiy qismi sifatida tahlil qilib, axborot texnologiyalari bankning resurs jalb qilish strategiyasini tubdan o'zgartirishini asoslab bergan [5]. O.I. Lavrushin boshchiligidagi ilmiy maktab passivlarni boshqarishda depozit siyosatining o'rnini, jumladan, jalb qilingan mablag'lar muddatligi va qiymati o'rtasidagi mutanosiblik masalalarini chuqur o'rgangan [6].

Raqamli banking bo'yicha zamonaviy qarashlar B. King va K. Skinner ishlarida yorqin ifodalangan. B. King "Bank 4.0" asarida bank xizmati mijoz turgan joyda, uning kundalik hayotiga singib ketgan holda ko'rsatilishi lozimligini, filialga asoslangan model esa o'z ahamiyatini yo'qotib borishini ta'kidlaydi [7]. K. Skinner raqamli bankni alohida kanal emas, balki biznes-modelning yangi arxitekturasini sifatida talqin etadi va ma'lumotlarni mijozga qiymat yaratishning bosh manbaiga aylantirishni taklif qiladi [8].

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ham ushbu yo'nalishda salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Y. Abdullayevning o'quv qo'llanmasida bank ishining nazariy asoslari, jumladan, depozit operatsiyalarining mazmuni va turlari tizimli bayon etilgan [9]. So'nggi yillarda respublikamiz tadqiqotchilari masofaviy bank xizmatlarining iqtisodiy mohiyati, raqamli banklar faoliyati hamda bank tizimining raqamli transformatsiyasi bilan bog'liq masalalarni faol o'rganmoqda.

Ayni paytda ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli kanallarning bevosita depozit bazasi shakllanishiga ta'siri, xususan, O'zbekiston sharoitida masofaviy xizmatlar rivoji bilan omonatlar dinamikasi o'rtasidagi bog'liqlik kompleks tarzda yetarlicha tadqiq etilmagan. Mazkur maqola ana shu bo'shliqni qisman to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumiy usullari - tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyosiy hamda tizimli tahlil usullaridan foydalanildi. Depozitlar va masofaviy xizmatlar dinamikasi statistik qatorlarni taqqoslash orqali o'rganildi. Axborot

manbai sifatida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma'lumotlari [10], Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazining bank sektori rivojlanishiga oid materiallari [11] hamda ixtisoslashgan tahliliy nashrlar ma'lumotlaridan [12] foydalanildi. Xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tadqiqotning nazariy bazasini tashkil etdi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Respublikamiz bank tizimida so'nggi to'qqiz yil davomida ro'y bergan o'zgarishlar ko'lami quyidagi jadval ma'lumotlarida o'z aksini topgan (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston bank tizimi raqamlashuvi va depozit bazasining asosiy ko'rsatkichlari* (2017–2025-yillar holatiga)

<i>Ko'rsatkichlar</i>	<i>2017-yil</i>	<i>2025-yil</i>	<i>O'zgarish</i>
<i>Bank tizimidagi jami depozitlar qoldig'i, trln so'm</i>	59,6	417,2	7,0 barobar
<i>Masofaviy bank xizmatlari foydalanuvchilari soni, mln</i>	4,5	82,9	18,4 barobar
<i>Moliyaviy xizmatlarning yillik hajmi, trln so'm</i>	15,2	171,9	11,3 barobar
<i>Bank tizimi jami aktivlari, trln so'm</i>	166,6	925,0	5,5 barobar

***Manba:** Markaziy bank va Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi ma'lumotlari [10; 11] asosida muallif tomonidan tuzildi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, masofaviy bank xizmatlari foydalanuvchilari sonining jadal o'sishi depozit bazasining kengayishi bilan hamohang kechgan. Albatta, omonatlar hajmining yetti barobar oshishida nominal daromadlarning o'sishi, inflyatsiya omili va foiz stavkalarining jozibadorligi ham muayyan rol o'ynagan. Biroq foydalanuvchilar sonining 18,4 barobar ko'payishi, moliyaviy xizmatlar yillik hajmining 11,3 barobar oshishi raqamli kanallarning omonat bozorini harakatlantiruvchi mustaqil kuchga aylanganidan dalolat beradi. Endilikda mijozning bank bilan birinchi tanishuvi ko'p hollarda filial orqali emas, mobil ilova orqali yuz bermoqda.

E'tiborga molik jihat shundaki, depozitlarning o'sishi foiz stavkalari pasayishi

sharoitida ham davom etmoqda. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yil mart oyi yakunlariga ko'ra milliy valyutadagi muddatli depozitlar bo'yicha o'rtacha nominal stavka 18,1 foizga tushib, so'nggi to'rt yildagi eng past darajaga yetdi, aholi omonatlari bo'yicha o'rtacha stavka esa 20,4–20,5 foiz atrofida shakllandi [12]. Shunga qaramay, faqat mart oyining o'zida depozitlar hajmi 12,1 trillion so'mga ko'payib, 1-aprel holatiga 433,9 trillion so'mni tashkil etdi. Bu holat omonatchilar xatti-harakatida narx omili bilan bir qatorda qulaylik, tezkorlik va xizmatdan foydalanish osonligi kabi nonarx omillarning ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi. Aynan shu nonarx omillar raqamli kanallarning tabiiy afzalligi hisoblanadi.

Raqamli xizmatlarning omonat bozoriga ta'sirini yaqqol namoyon etuvchi yana bir jarayon - bu faqat masofaviy formatda faoliyat yurituvchi raqamli banklarning paydo bo'lishidir. Anorbank, TBC Bank, Uzum Bank, Hayot Bank kabi kredit tashkilotlari an'anaviy filial tarmog'isiz, to'liq mobil ilova orqali xizmat ko'rsatish modelini tanladi. Filial va kassa infratuzilmasiga sarflanadigan xarajatlarning yo'qligi ushbu banklarga omonatlar bo'yicha nisbatan jozibador

shartlarni taklif etish hamda omonat ochish jarayonini bir necha daqiqagacha qisqartirish imkonini berdi. Natijada raqamli banklar qisqa muddat ichida aholi omonatlari bozorida sezilarli ulushni egallashga muvaffaq bo'ldi va an'anaviy banklarni ham o'z xizmatlarini raqamlashtirishga undadi.

Raqobat muhitidagi o'zgarishlar aholi omonatlarining banklar guruhlarini kesimidagi taqsimotida ham kuzatilmoqda (2-jadval).

2-jadval

Aholi omonatlarining davlat ishtirokidagi va xususiy banklar o'rtasida taqsimlanishi*

Banklar guruhi	2024-yil (aprel)	2026-yil (1-aprel)
Xususiy banklar, trln so'm	50,5	85,9
Davlat ishtirokidagi banklar, trln so'm	38,0	80,0
Guruhlar o'rtasidagi farq, foizda	32,9	7,4

*Manba: Markaziy bank ma'lumotlari [10; 12] asosida muallif tomonidan tuzildi.

Ko'rinib turibdiki, ikki yil avval xususiy banklardagi aholi omonatlari davlat banklaridagi ko'rsatkichdan 32,9 foizga ortiq bo'lgan bo'lsa, 2026-yil aprel holatiga bu farq 7,4 foizgacha qisqargan. Xususiy banklar, jumladan, raqamli banklar dastlab masofaviy xizmatlar hisobiga omonatchilarni jadal jalb qilgan bo'lsa, keyingi bosqichda davlat ishtirokidagi yirik banklar ham mobil ilovalarini tubdan yangilash, onlayn omonat mahsulotlarini joriy etish orqali yo'qotilgan mavqeini tiklay boshladi. Bu raqamli kanallarning bozor ulushi uchun kurashda hal qiluvchi vositaga aylanganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Depozitlarni masofadan jalb qilishning texnologik zaminini masofaviy identifikatsiya tizimi tashkil etadi. Yagona identifikatsiya tizimi va biometrik tekshiruv vositalarining joriy etilishi mijozga bankka tashrif buyurmasdan omonat shartnomasini rasmiylashtirish imkonini berdi. Shu bilan birga, Markaziy bank tomonidan onlayn xizmatlar ko'rsatishda foydalanuvchini masofaviy biometrik identifikatsiyadan o'tkazish, firibgarlik holatlarining oldini olish

bo'yicha ichki tizimlarni yaratish kabi talablar belgilangani ushbu kanalning huquqiy himoyasini kuchaytirdi [10].

Shu o'rinda erishilgan yutuqlar bilan birga raqamli kanallar orqali depozit jalb qilish samaradorligini cheklayotgan qator omillarni ham qayd etish lozim. Fikrimizcha, ular quyidagilardan iborat:

birinchidan, omonatlar tarkibida qisqa muddatli mablag'lar ustunlik qilmoqda. Onlayn omonatlarning ochish va yopish jarayoni nihoyatda soddalashgani mijozlarning mablag'ni tez-tez ko'chirib yurishiga sharoit yaratadi, bu esa banklar resurs bazasining muddatligini pasaytiradi va uzoq muddatli kreditlash imkoniyatlarini cheklaydi;

ikkinchidan, kiberfiribgarlik va ijtimoiy muhandislik usullarining avj olishi aholining masofaviy xizmatlarga ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Har bir firibgarlik holati nafaqat bevosita zarar ko'rgan mijoz, balki uning atrofidagilar nazdida ham raqamli omonatlarning xavfsizligiga soya soladi;

uchinchidan, moliyaviy va raqamli savodxonlik darajasi hududlar hamda yosh guruhlarini kesimida notekis taqsimlangan.

Keksa avlod vakillari va qishloq aholisining bir qismi uchun mobil ilova orqali omonat ochish hanuz murakkab jarayon bo'lib qolmoqda;

to'rtinchidan, ko'pchilik banklarning onlayn omonat mahsulotlari bir-biridan deyarli farq qilmaydi va raqobat asosan foiz stavkasi tekisligida kechmoqda. Mijozning hayotiy maqsadlariga moslashtirilgan, shaxslashtirilgan jamg'arma yechimlari hali keng tarqalmagan;

beshinchidan, yuridik shaxslarga masofaviy depozit xizmatlarini ko'rsatish darajasi jismoniy shaxslarga nisbatan ancha past. Korporativ mijozlar uchun onlayn depozit qo'yish, muddatlarni moslashuvchan boshqarish imkoniyatlari cheklanganicha qolmoqda.

Yuqoridagi tahlil natijalariga tayangan holda, raqamli bank xizmatlari orqali depozitlar hajmini oshirishning quyidagi yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Birinci yo'nalish - onlayn omonatlar uchun rag'batlantiruvchi shartlarni qo'llash. Masofaviy kanal orqali xizmat ko'rsatish tannarxi filialdagi xizmatga nisbatan sezilarli darajada past. Ushbu tejamkorlikning bir qismini mijoz bilan bo'lishish, ya'ni onlayn ochilgan omonatlarga qo'shimcha foiz ustamasi belgilash yoki komissiyalarni bekor qilish omonatchilarni raqamli kanalga yo'naltirishning samarali vositasi bo'la oladi.

Ikkinchi yo'nalish - avtomatik va maqsadli jamg'arish xizmatlarini rivojlantirish. Har bir karta operatsiyasidan qoldiqni yaxlitlab omonatga o'tkazish, ish haqi kelib tushishi bilan oldindan belgilangan ulushni jamg'armaga yo'naltirish, muayyan maqsad (ta'lim, uy-joy, sayohat) uchun alohida hisobvara quritish kabi servislar mijozda jamg'arish odatini shakllantiradi. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, ana shunday mayda, ammo muntazam tushumlar yig'indisi banklar uchun barqaror resurs oqimini yaratadi [7; 8].

Uchinchi yo'nalish - ma'lumotlar tahliliga asoslangan shaxslashtirish. Mijozning

daromadlari, xarajatlar tuzilmasi va moliyaviy xulq-atvorini tahlil qilish asosida unga mos omonat muddati, summasi va to'ldirish jadvalini taklif etish takliflarning maqsadlilikini oshiradi. Bunda shaxsga doir ma'lumotlar himoyasi talablariga qat'iy rioya etilishi shart.

To'rtinchi yo'nalish - uzoq muddatli onlayn omonat mahsulotlarini joriy etish. Muddat oshgani sayin ortib boruvchi progressiv stavka, foizlarni yo'qotmasdan qisman yechib olish opsiyasi, omonatni onlayn tarzda uzaytirish imkoniyati mijozni mablag'ni bankda uzoqroq saqlashga undaydi va resurs bazasining muddatlilik bilan bog'liq muammoni yumshatadi.

Beshinchi yo'nalish - kiberxavfsizlikni kuchaytirish va ishonchni mustahkamlash. Antifrod tizimlarini takomillashtirish, shubhali operatsiyalarni real vaqt rejimida aniqlash, mijozlarni firibgarlik sxemalari haqida muntazam ogohlantirish bilan bir qatorda, omonatlarni kafolatlash tizimining mavjudligi va shartlarini ilova ichida tushunarli tarzda yoritib borish lozim. Omonatchi o'z mablag'i himoyalanganiga ishonchi komil bo'lsagina raqamli kanalga jiddiy summalarni ishonib topshiradi.

Oltinchi yo'nalish - moliyaviy savodxonlikni oshirishning raqamli vositalarini qo'llash. Mobil ilovaga o'rnatilgan omonat kalkulyatori, jamg'arma bo'yicha qisqa o'quv modullari, foizlarning hisoblanish tartibini ko'rsatuvchi interfaol yechimlar mijozning ongli qaror qabul qilishiga xizmat qiladi. Hududlarda esa raqamli infratuzilmani rivojlantirish va agentlik tarmoqlari orqali aholiga masofaviy xizmatlardan foydalanishni o'rgatish alohida ahamiyat kasb etadi.

Yettinchi yo'nalish - ochiq dasturiy interfeyslar (ochiq banking) va ekotizim hamkorligini kengaytirish. Bank xizmatlarining savdo maydonchalari, kommunal to'lov platformalari va boshqa kundalik servislar bilan integratsiyasi omonat mahsulotini mijoz doimiy foydalanadigan raqamli muhitga olib kiradi. Respublikamizda

shakllanayotgan moliyaviy-savdo ekotizimlari tajribasi bunday yondashuvning istiqbolli ekanini ko'rsatmoqda.

Sakkizinchi yo'nalish - yuridik shaxslar uchun masofaviy depozit xizmatlarini rivojlantirish. Korporativ mijozlarga bo'sh pul mablag'larini onlayn tarzda qisqa muddatli depozitlarga joylashtirish, muddat va summani moslashuvchan boshqarish imkonini berish banklar resurs bazasiga yirik hajmdagi mablag'larni jalb etish salohiyatiga ega. 2026-yil mart oyida depozitlar o'sishining asosiy qismi aynan korporativ segment hissasiga to'g'ri kelgani [12] ushbu yo'nalishning istiqbolini tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari raqamli bank xizmatlarining depozit bazasini kengaytirishda hal qiluvchi omilga aylanganini ko'rsatdi. 2017-2025-yillarda masofaviy xizmatlar foydalanuvchilari sonining 4,5 milliondan 82,9 milliongacha o'sishi bank tizimidagi depozitlar qoldig'ining 59,6 trillion so'mdan 417,2 trillion so'mgacha ko'payishi bilan uyg'un kechdi. Foiz stavkalari pasayib borayotgan sharoitda ham omonatlar o'sishining davom etayotgani mijozlar tanlovida qulaylik va xizmat sifati kabi nonarx

omillar salmog'i ortib borayotganidan dalolat beradi.

Ayni paytda tahlil raqamli kanallar salohiyatidan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilayotgan muammolarni ham yuzaga chiqardi: resurs bazasida qisqa muddatli mablag'larning ustunligi, kiberfiribgarlik xatarlari, moliyaviy savodxonlikning notekisligi, onlayn mahsulotlarning bir xilligi hamda korporativ segmentda masofaviy xizmatlarning sustligi shular jumlasidandir.

Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida maqolada onlayn omonatlarga rag'batlantiruvchi shartlar qo'llash, avtomatik va maqsadli jamg'arish servislarini joriy etish, mahsulotlarni shaxslashtirish, uzoq muddatli onlayn omonat turlarini rivojlantirish, kiberxavfsizlik va omonatlarni kafolatlash tizimi to'g'risidagi xabardorlikni oshirish, moliyaviy savodxonlikning raqamli vositalarini qo'llash, ekotizim hamkorligini kengaytirish hamda yuridik shaxslar uchun masofaviy depozit xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha takliflar asoslab berildi. Mazkur chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi banklar resurs bazasining barqarorligini ta'minlash bilan birga, mamlakat iqtisodiyotini uzoq muddatli moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonuni. 2019-yil 1-noyabr, O'RQ-578-son. - <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. - <https://lex.uz/docs/4811025>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. - <https://lex.uz>
4. Rose P.S., Hudgins S.C. Bank Management & Financial Services. 9th ed. - New York: McGraw-Hill, 2013. - 768 p.
5. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. - М.: Альпина Бизнес Букс, 2007. - 1018 с.
6. Лаврушин О.И. Банковское дело: учебник. - М.: КНОРУС, 2016. - 800 с.
7. King B. Bank 4.0: Banking Everywhere, Never at a Bank. - Singapore: Wiley, 2018. - 384 p.

8. Skinner C. *Digital Bank: Strategies to Launch or Become a Digital Bank*. - Singapore: Marshall Cavendish, 2014. - 300 p.
9. Abdullayev Y. *Bank ishi: o'quv qo'llanma*. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2010. - 532 b.
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma'lumotlari. - <https://cbu.uz/uz/statistics/>
11. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi. O'zbekiston bank sektorining 2017-2025-yillardagi rivojlanish dinamikasiga oid ma'lumotlar. - Toshkent, 2026.
12. O'zbekistonda depozit stavkalari va omonatlar bozori tahlili // *Gazeta.uz*. - 2026-yil 29-aprel. - <https://www.gazeta.uz/oz/2026/04/29/deposits/>